

FRAZEOLOGIZMLAR TARJIMASIDA EKVIVALENTLIK VA ADEKVATLIK MUAMMOLARI

Kalonova Ma'rifat

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya. Frazeologizmlar tilning “qalbi”dir. Ularni so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi. Ushbu maqolada iboralar tarjimasidagi ekvivalentlik va adekvatlik muammolari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: frazeologik birliklar, tarjima ekvivalentligi, tarjima adekvatligi, iboralarning ma’no qatlami, milliy kolorit, kontekstual ma’no.

Frazeologik birliklar so‘z birikmalaridan farq qilib, majoziy ma’noni ifodalovchi turg‘un birikmalar hisoblanadi. Ular nutq jarayonida qo‘llanilar ekan, ma’noning bo‘yoqdorligini oshirishda hamda obrazli ifodalashda muhim rol o‘ynaydi.

Frazeologik birliklar haqida Sh. Rahmatullayev o‘z adabiyotlarida ushbu til birligini “frazeologizm”, “frazeologik birlik” kabi terminlar bilan atalishini, “leksema”, “morfema” terminlariga monand ravishda “frazema” deb atalishini ma’qullaydi [4; 420]. Shuningdek, olim frazema kamida ikki leksemadan tarkib topishini ta’kidlaydi. Uning qarashlariga ko‘ra, frazema ikki va undan ortiq leksemaning o‘zaro semantik-sintaktik bog‘lanib, umumlashgan ko‘chma ma’no hosil qilishi natijasida yuzaga keladi [4; 420].

PhD, dotsent Ulug‘bek Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek, aslyyat va tarjimaning mazmunan to‘la mos kelishi birinchi darajali zarurat hisoblanadi. Shu sababli ko‘pchilik tadqiqotchilar ekvivalentlikni tarjimaning asosiy belgisi va sharti deb hisoblaydi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, ekvivalentlik tarjimaga berilgan “bir tildagi matnни o‘zga tilda shu darajadagi matn bilan almashtirish” kabi ta’rifga mos keladi. Ushbu holda ekvivalentlik tarjimaning sifatli va yuqori bahoga loyiq bo‘lishini anglatadi. Masalan: *She turned her nose in the air – Qiz yigitga nafrat ko‘zi bilan qarab qo‘ydi.*

Bu yerda aslyyat va tarjima matnlari orasida mazmuniy umumiylik mavjudligi tufayli ekvivalentlik yuzaga kelgan.

Tarjima nazariyasida eng muhim tushunchalardan biri bu – adekvatlik (moslik) tushunchasidir. Adekvat tarjima – bu matnни faqat so‘zma-so‘z emas, balki uning ma’nosi, vazifasi va kommunikativ niyatini to‘liq yetkazib bera olishdir. Boshqacha aytganda, adekvatlik tilshunoslik chegaralaridan chiqib, ma’no, uslub va kontekst kabi chuqur qatlamlarni ham qamrab oladi.

Ko‘pincha adekvatlik tushunchasi ekvivalentlik tushunchasiga qarama-qarshi sifatida qo‘llaniladi. Ekvivalentlik odatda so‘z yoki ibora darajasidagi moslikni nazarda tutsa, adekvatlik esa butun matnning mazmuni, ohangi va funksiyasini yangi tilga tabiiy tarzda ko‘chirishni anglatadi. Shu bilan birga, adekvat tarjima matnning kommunikativ maqsadi bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, badiiy asarni tarjima qilishda uning estetik ta’sirini saqlash muhim bo‘lsa, yuridik hujjatda terminologik aniqlik birinchi o‘ringa chiqadi. Demak, adekvatlik matn turi, auditoriya va vazifasiga qarab belgilanadi [1; 250–257].

Iboralarning ma’no qatlami – bu frazeologik birliklarning tarkibiy qismlaridan ajralib chiqqan yaxlit, ko‘chma va ko‘p ma’noli xarakteridir. Ular tarkibidagi

soʻzlarning alohida maʼnolari birlashib, yangi, umumiy va koʻpincha emotsional boʻyoqqa ega boʻlgan tasviriy maʼnoni ifodalaydi.

Iboralarning maʼno qatlami quyidagi xususiyatlarda namoyon boʻladi:

Yaxlit maʼno (idiomatiklik): ibora tarkibidagi soʻzlar oʻz lugʻaviy maʼnosini yoʻqotib, yagona koʻchma maʼnoni anglatadi (masalan, *boshini egmoq* — taslim boʻlmoq, uyalmoq).

Koʻchma maʼno (metaforizatsiya): iboralar koʻpincha oʻxshatish, majoz va boʻrttirish asosida shakllanadi.

Emotsional-ekspressiv boʻyoq: iboralar nutqqa taʼsirchanlik, tasviriylik va his-tuygʻu yuklaydi.

Turgʻunlik: iboralar nutqda tayyor holda qoʻllanadi, tarkibiy qismlarini oʻzgartirish mumkin emas.

Milliy kolorit tushunchasiga taʼrif beradigan boʻlsak, “kolorit” soʻzi lotincha *color*, italyanча *colorito* soʻzlaridan kelib chiqqan boʻlib, “rang”, “boʻyoq”, “manzara”, “jilo” kabi maʼnolarni anglatadi. Tasviriy sanʼatda u ranglarning oʻzaro uygʻunligini bildirsa, badiiy tarjimada muayyan predmet yoki hodisaning oʻziga xos xususiyatlari majmuini anglatadi. Kolorit asarning gʻoyasi, mazmuni, davri, uslubi va muallif shaxsiga bogʻliq holda shakllanadi.

Milliy kolorit bir necha tarkibiy qismlardan iborat:

Xalqning moddiy turmush tarziga oid soʻzlar: paxta, gʻoʻza, oʻtov va boshqalar.

Majoziy maʼnoda ishlatiladigan birliklar: paxtadek oppoq, qoʻydek bezor, ohuday qiz.

Kishi nomlari va laqablarning berilishi.

Diniy tushunchalar va marosimlar: “Pasxa”, “Holli” va boshqalar.

Geografik nomlar: Sayhun – Sirdaryo, Chin – Xitoy.

Pul birliklari: soʻm, tanga, rupiy, riyol.

Oʻlchov birliklari: chaqirim, farsang, qadam, dyum.

Taom nomlari: “pirogi” – somsa, “kasha” – shovla.

Kontekstual maʼno – soʻzning lugʻaviy maʼnosidan farqli ravishda, faqat maʼlum nutqiy vaziyatda yuzaga keladigan maʼnodir. U soʻzlovchining maqsadi va vaziyatga qarab oʻzgaradi hamda pragmatik tahlilda muhim oʻrin tutadi.

Asosiy xususiyatlari vaziyatga bogʻliqlik, kontekstual qarama-qarshiliklar, tarjimada hal qiluvchi ahamiyatga egaligi.

Masalan, “oltin” soʻzi aslida qimmatbaho metallni anglatrsa, “oltin davr” birikmasida “eng yaxshi davr” maʼnosini bildiradi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Bayjanova G. Tarjimaning mazmuni. Badiiy tarjimaning ahamiyati. *Modern Education and Development*, 2025, 250–257-betlar.
2. Yoʻldoshev U. Tarjima nazariyasi. Oʻquv qoʻllanma, 2021.
3. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti, 2005.
4. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati. 2022.
5. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. 2013.
6. Mirtojdiyev M. Oʻzbek tili semasiologiyasi. 2010.
7. <https://uz.m.wikipedia.org>
8. <https://cyberleninka.ru>